

ALISHER NAVOIY - O'ZBEK DIPLOMATIYASI TARIXIY TIMSOLI

DOI: [10.63407/611035](https://doi.org/10.63407/611035)

Israil Shamsimuxamedov

Annotatsiya: Maqola uch qismdan iborat bo'lib, *Kirish, Amir Temur saltanati va Boburiylar sulolasi amalga oshirgan diplomatiya hamda Husayn Boyqaro hukmdorligi davrida Alisher Navoiy siyosiy faoliyatidagi diplomatiyani yorituvchi ma'lumotlar keltiriladi. O'zbek diplomatiyasi tarixi bilan tanishish maqsadida manbalarga murojaat qilinsa, asosan mustaqillik yillarida nashr etilgan ikki bo'bro' kitobni uchratish mumkin. Bular: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti va Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti hamkorligida 2003-yilda akademik M.Xayrullayev umumiy tahriri ostida chiqargan O'zbek diplomatiyasi tarixidan (Tarixiy ocherklar va lavhalar)¹ hamda O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tomonidan 2019-yilda nashr etgan 6-jildlik O'zbekiston diplomatiyasi tarixi (qadimgi zamonlardan hozirgi kungacha)² nomli kitoblar. Har ikki nashrda uzoq o'tmishdan to bugungi kungacha ajdodlarimiz yuritgan diplomatiya tarixi yoritilgan. Ayniqsa, buyuk Amir Temur davri diplomatiyasi har tomonlama, batafsil bayon qilingan. Bundan tashqari Boburiylar imperiyasidagi diplomatiya to'g'risida ham diqqatga molik ma'lumotlar keltirilgan.*

¹ O'zbek diplomatiyasi tarixidan (Tarixiy ocherklar va lavhalar), JIDU, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, akademik M.Xayrullayev umumiy tahriri ostida chiqarilgan, Toshkent, 2003-y.

² O'zbekiston diplomatiyasi tarixi (Qadimgi zamonlardan hozirgi kungacha) O'R TIV va JIDU 2019-yilda nashr etgan 6-jildlik, Toshkent, "O'ZBEKISTON", 2019

Kalit so'zlar: *diplomatiya, diplomatik munosabatlar, siyosiy faoliyat, elchilik instituti, sulton xizmati, xizmat prinsiplari*

Navoiy diplomatiyasini to'liq anglash uchun tabiiyki, uning shaxs, shoir va davlat arbobi bo'lib shakllanishiga sababchi bo'lgan temuriylar tarixi, ularning merosini bilish muhim. Zero, Amir Temur va temuriylar davri diplomatiyasi va xalqaro munosabatlari nafaqat O'zbekiston tarixida, balki butun dunyo tarixida alohida o'rin egallaydi³.

Amir Temur hukmronligi yillari va undan keyingi yillarda yuritilgan siyosat va uning o'zagi bo'lgan diplomatiya va elchilik institutiga berilgan baholar bilan tanishib chiqilsa, yuqorida qayd etilgan fikrlarga javob topiladi.

Shu o'rinda maqolada keltiriladigan Temur, Bobur va Navoiyga aloqador ko'p ma'lumot, faktlardan faqatgina xulosa tariqasida foydalanib, Navoiyning davlat xizmatidagi faoliyatini diplomatiya bilan bog'lab tushuntirib berish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Manbalarda bu davrga quyidagicha baho berilgan: Amir Temur saltanati diplomatiyasi tarixi o'zbek diplomatiyasi tarixining cho'qqilaridan birini tashkil etadi. Amir Temur diplomatiyasi Yevroosiyo mintaqasini birlashtiruvchi muhim kuch rolini bajarishi bilan birga, ana shu xalqlarning tinchlik-farovonligi, savdo-iqtisodiy munosabatlarning gurkirab

³ O'zbek diplomatiyasi tarixidan (Tarixiy ocherklar va lavhalar), JIDU, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, akademik M.Xayrullayev umumiy tahriri ostida chiqarilgan, Toshkent, 2003-y., 87-b.

rivojlanishiga muhim ta'sir ko'rsatdi⁴. U yuritgan oqil diplomatiya tufayli ham Osiyoda, ham Yevropa mamlakatlarida xavfsizlik va barqarorlik ta'minlangan... Amir Temur diplomatiyasi ham siyosiy, ham inson resurslari imkoniyatlarining keng qo'llanishi, tezkorligi, tartiblilik va tizimlilik bilan ajralib turar edi⁵.

Tarixchilar Amir Temur saroyida diplomatik tartib, udum va marosimlarga alohida e'tibor berilgani, davlatning xalqaro obro'si baland bo'lganini yaxshi yoritib bergan. Bu davrda poytaxt Samarqand va Hirotning gullab-yashnashi va mavjud ijodiy muhit diplomatik aloqalar, turli almashinuvlarga qulay zamin yaratgan edi. Aynan ana shu muhitda buyuk davlat arbobi, ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy siyosiy faoliyati va iste'dodi to'liq namoyon bo'ldi.

Temur o'z taxtini, saltanatini mustahkamlash, kuchli davlatni saqlash uchun oqil diplomatiya qo'llashi lozim edi. O'z tuzuklarida ta'kidlashicha: "Turon mamlakatini fath etgan kunim va poytaxt Samarqandda saltanat taxtiga o'tirgandan so'ng, do'stu dushman bilan muomalada bir tekis yo'l tutdim. Menga yomonlik qilgan, hiyla-makr ishlatib jang maydonida menga qarshi qilich yalang'ochlagan Badaxshon amirlari, turku tojik qilmishlaridan qo'rquvda edilar. Chorasiz qolib, iltijo bilan mening panohimga kelganlarida ularga shunday yaxshilik qildimki, mening inoyatim va xayrehsonimni ko'rib ular sharmanda bo'ldilar"⁶.

⁴ O'sha asar, 87-b.

⁵ O'sha asar, - 87-b.

⁶ O'sha asar, 116-b

Amir Temur o'rta asrlarning yangi kishisi sifatida bajargan siyosiy missiyasi orqali o'z davri imkoniyat va chegaralaridan o'zib ketib, bugungi global sahnalarni his eta oldi, xalqaro munosabatlarda va diplomatiyada yangi an'ana va tizimlarning shakllanishiga sababchi bo'ldi. Amir Temur, hatto davlat boshqaruvida turk, mo'g'ul, arabiy-forsiy an'analardan foydalanib, yangi davlatchilik asoslarini yaratgan va ana shu unsurlardan foydalanib diplomatiya maktabini boyitgan. Uning davlat boshqaruvi va diplomatiyasidan keyingi yuz yilliklarda barcha Sharq davlatlari rahbarlari andoza sifatida foydalangan ⁷. Boyqaro va Navoiy shular jumlasidandir!

Amir Temur tashqi siyosati va diplomatiyasida baynalmilallik, tolerantlik g'oyalari mavjud bo'lganligini anglash mumkin. Qat'iyat, maqsadga intilish, tirishqoqlik, imkoniyatdan mukammal va to'g'ri foydalana bilish, yuksak axloqiy qadriyatlar, muzokara olib borish orqali masalani tinchlik yo'li bilan hal qilish, tezkor harakat qilish, raqibiga payt poylab zarba berish kabi usullar uning diplomatiyasidagi xos xususiyatlardandir (Quyida Navoiyning ham bu usullardan unumli foydalanganiga yaxshi misol keltiriladi). Amir Temur diplomatiyaning tahdid, ogohlantirish bilan birga, tashviqot usullaridan keng foydalanishga intilgan. Bu esa o'sha davrning o'ziga xos informatsion kurashlaridan edi⁸.

Ma'lumki, diplomatiyaning uzviy bo'lagi - bu elchilik instituti. Bizda qadimdan bu sohaga katta

⁷ O'sha asar, 116-b.

⁸ O'sha asar, 121-b.

e'tibor berib kelingan. Elchilarni tanlash, tayyorlash, sulh yoki hamkorlik masalalarida boshqa davlatlarga yuborishda ma'lum qonun-qoidalarga amal qilingan. Temur saroyida elchilarni tayyorlash uchun tuzilgan maxsus xizmat doimiy ravishda ishlab turgan. Elchilikka tili shirin, vaziyatni to'g'ri baholay oladigan, tarang vaziyatlarni yaxshi tomonga o'zgartira oladigan aqli o'tkir, o'z davrining eng obro'li kishilari tayinlangan. Uning elchilarni qabul qilishi, sovg'alarning qanday topshirilishi, atrofida kimlarning o'tirishi, temuriy malikalarning tantanalarda ishtirok etishi, ovqatlanish odobi va boshqa diplomatik qabullari mukammal tayyorlangan.

Boshqa bir bahoga ko'ra, "... elchilikka ziyrak, bilimli, xalqaro munosabatlar ilmini puxta egallagan, har qanday og'ir vaziyatlarda to'g'ri tadbirlar qo'llay oladigan va dono kishilar orasidan tanlab olinib, maxsus tayyorgarlikdan o'tkazilgan"⁹. Ularning o'zini tutishi, kiyimlari va aytadigan gaplarigacha puxta tayyorlangan. Ibn Arabshoh Amir Temur davrida qonunlarni va tartibotlarni yaxshi bilgan qozilardan elchi sifatida foydalanganligini ham alohida ta'kidlab o'tgan.

Elchini tanlashda uning aqli rasoligi, bir necha tillarni bilishi, so'zamolligi va o'z suhbatdoshining ishonchiga kirishi masalalariga katta e'tibor berilgan. Suxandonlik, ayniqsa hukmdorlar bilan muloqot qilganda ularning ko'ngillarini topa biladigan, o'z hamsuhbatining kayfiyatini ko'taradigan, jismonan baquvvat, qaddi-qomati kelishganligi nazarda tutilgan. Elchi ma'rifatli, yuksak ma'naviyatli, har sohada ustasi

⁹ O'sha asar, 163-b.

farang bo'lishi talablar sirasiga kirgan. Elchilarning vazifalari nimalardan iborat bo'lgan? Eng asosiy vazifasi bu – har ikki davlat va mamlakatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlarni rivojlantirishdan iborat bo'lgan.

Amir Temur olib borgan serqirra diplomatik faoliyat uning vafotidan keyin ham avlodlari tomonidan davom ettirildi. Bu haqda bir tomondan ko'pgina tarixiy asarlarda uchraydigan ma'lumotlar guvohlik bersa, ikkinchi tomondan temuriy shahzodalarning zamondosh hukmdorlar bilan olib borgan yozishmalari, aniqrog'i, mazkur maktublarning turli xatlar majmualarida saqlanib qolgan nusxalari dalolat beradi¹⁰.

Temurdan keyin uning avlodi olib borgan siyosat ham o'ta sergaklik va nozik diplomatiyani talab etar edi. Aynan Navoiy siyosiy faoliyatida ham ana shu qoidalar, talablarga qat'iy amal qilindi.

Temuriylar xorijiy munosabatlariga doir ko'plab ma'lumotlarni o'rganilganda, "...temuriylar saroyida tashqi ishlar bilan shug'ullanuvchi butun bir tizim ishlab turganini ko'rish mumkin. Xorijiy davlatga boradigan elchilikni tashkil etish, xorijdan keladigan elchilarni kutib olish, qabul marosimlarini tashkil etish, elchilarga xizmat ko'rsatish kabi har bir masalaning o'z mutasaddisi temuriylar saroyida tayin qilingan. Saroyda munshiy devoni (hozirgi kotibiyat – I.Sh.) faoliyat ko'rsatib turgan va temuriy hukmdor nomidan xorijiy shohu sultonlarga yuboriladigan maktubning mukammal, nazokatimiz iboralar bilan

¹⁰ O'zbekiston diplomatiyasi tarixi (Qadimgi zamonlardan hozirgi kungacha) O'R TIV va JIDU 2019-yilda nashr etgan 6-jildlik, Toshkent, "O'ZBEKISTON", 2019, 91-b.

bezatilgan bo'lishi va aksincha, xorij hukmdorlaridan keladigan maktublarni tarjima qilish, ularning nusxasini olish kabi masalalar mazkur devonning mas'uliyatiga kirgan. Yuqorida keltirilgan ayrim dalillarning o'ziyoq temuriylar diplomatiyasi Amir Temur asos solgan buyuk davlat an'analariga tayangan holda keng ko'lamda tashqi siyosat yuritib kelganligini isbotlab turibdi¹¹.

Amir Temur avlodlaridan biri Hindistonda Buyuk imperiyaga asos solgan Zahiriddin Muhammad Bobur yorqin davlat arbobi, nazokatli inson, diplomat edi. Temuriylar diplomatiyasi Bobur hamda uning avlodlari va boshqalarning davlat boshlig'i sifatidagi faoliyatida davom ettirildi. Bobur Safaviylar hukmronligidagi Eron, Bengaliya, Sharqiy Turkiston, Moskva knyazligi bilan faol diplomatik aloqalarni yo'lga qo'ygan edi. Akbar va Jahongir hukmronligi davrida Yevropa davlatlari, Turkiya, Eron, Sharqiy Turkiston bilan yaqin munosabatlar taraqqiy etdi. Bobur va boburiylar davrida Hindiston hamda O'rta Osiyo munosabatlari, ayniqsa, qizg'in, sermahsul kechdi.

Boburiylar sulolasi davrida Hindistonda Sharq rasmiy rusumlari diplomatiyaning asosini tashkil etar edi. Shu bilan birga Boburiy shahzodalar uchun Amir Temur tuzuklari dasturilamal rolini o'ynadi.

Yuqorida Temur davri va uning diplomatiyasiga qilingan ekskurs maqolamiz obyekti bo'lgan sulton Boyqaro hukmronligi yillarida Navoiy tomonidan olib borilgan siyosiy faoliyat va diplomatiya uchun zamin bo'ladi, deb

¹¹ O'sha asar, 91-b.

o'ylaymiz. Tadqiqotimizning asosiy qismiga o'tadigan bo'lsak, unda ko'tariladigan asosiy masala – o'zbek diplomatiyasi tarixi hamda Navoiy hayoti va faoliyati tadqiqotchilari nima uchun uning diplomatligi, diplomatik faoliyati to'g'risida bir og'iz ham gapirmaganlar va unga baho bermaganlar, degan savol. Maqolada aynan ana shu masala ustida to'xtalib, shu bo'shliqni to'ldirishga harakat qilindi. Ehtimol, shu bahona bu masala kun tartibiga ko'tarilib, o'ziga olimlar e'tiborini tortib, yangi tadqiqotlar paydo bo'lar.

Demak, qo'yilgan maqsad: bu buyuk shaxsning o'z xizmat faoliyati davomida amal qilgan diplomatik tartib-qoidalar to'g'risida tasavvur paydo qilish va bu sohani imkon qadar to'ldirish.

Navoiy butun vujudi bilan diplomat edi, desak aslo yanglishmagan bo'lamiz. Buning isboti bu alloma, ulug' insonga o'z davridan hozirgacha berib kelinayotgan yuksak baholar. Birgina buyuk Boburning: "Alisherbek naziri yo'q kishi erdi..." va Davlatshohning: "Ul hazratdek kishilarni insoniyat bir necha yuz yilda bir marta ko'rishi mumkin", degan baholari yetarli bo'lsa kerak. Bunday fazilat va xislatlar, darhaqiqat, haqiqiy diplomat insonda jam bo'ladi. So'zsiz, Navoiy nafaqat temuriylar diplomatiyasidan, balki ulardan avval hukm surgan xoqon, sultonlar davri hayoti, qonun-qoidalaridan ham yaxshi xabardor bo'lgan.

Quyida biz navoiyshunoslikda ko'p tilga olingan ma'lumotlar orasidan bu davlat arbobining mamlakat siyosiy-ijtimoiy hayotida tutgan o'rni, ijoddan tashqari amalga oshirgan, ko'proq diplomatik faoliyatiga aloqador ishlarini tizimli ravishda ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

Taniqli olim V.V.Bartold o'z davrining olimlari M.Belen va E.G.Braunlarning "Mir-Alisherning hayoti odatdagidan ko'ra tinch bo'lgan", degan fikrlarini rad etgan holda, aksincha, u o'z davri siyosiy hayotining qoq markazida bo'lgan, siyosiy kurashlarda ishtirok etgan, "beklar to'dasi" (ya'ni turkiy zodagonlar) boshchiligidagi saroy nizolariga duch kelgan va nafaqat taqdir marhamatini, balki uning bevafoqligini ham boshidan kechirgan qudratli shaxs bo'lganini ta'riflab bergan¹². U butun umrini o'z yurtining rivojiga, el-yurtning tinchligi va farovonligini ta'minlash uchun baxshida qildi. Sulton Boyqaro uni "mamlakat ustuni, dinu davlat nizomi, mulku millat as'hoblari zubdasi (yaxshi insonlar sarasi), xayrli binolar muassasi, xoqon davlati tayanchi", deb atagani bejiz bo'lmagan¹³...

Navoiy Xurosonda ilm-fan, san'at va adabiyot rivojini ta'minlamoq, osoyishta hayot barpo etmoq uchun adolatli va kuchli hukmron bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. U Boyqaroni ana shunday hukmron bo'ladi, deb ishonar edi. Shuning uchun Navoiy o'z siyosiy faoliyatining boshidanoq, Boyqaro tarafida bo'ldi. Va bu mavqeda hayotining oxirgi daqiqasigacha qoldi¹⁴.

Navoiy Samarqandda ekani vaqtda hokim Ahmad Hojibek atayin shoirni taxt da'vogari Boyqaroning tarqoq qo'shinlarini ta'qib qilish uchun o'zi bilan birga olib boradi. Qisqa jangdan keyin Boyqaro askarlaridan ikki kishini asir oladilar. Hokim

¹² V.V.Bartold, Mir-Ali-Shir i politicheskaya jizn. Sb. "Mir-Ali-Shir", AN SSSR, L., 1928, str. 100

¹³ Sirojiddinov Sh., Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili – T.Akademnashr, 2011, ...-b

¹⁴ O'sha asar

ularni qatl etishga buyuradi. Shunda Navoiy o'rtaga tushib, yosh yigitlar umrini saqlab qolish niyatida "hokimga ularni tirik jo'natish kerak. Ularni so'roq qilib, vaziyatni bilib oladilar", deb maslahat beradi. Yigitlar qamoqqa tashlanib, tirik qoladi. Ulardan biri ozod bo'lganidan so'ng Navoiyni izlab topib, butun umr uning xizmatida bo'ladi. Bu mutafakkirning diplomatik san'atidan kichik bir misol.

Shunga o'xshash yana bir voqea bo'lgan. Unda ham Navoiyning o'tkir zehn va topqirligi tufayli kallasi olinayotgan ikki asir turkman yigit omon qoladi. Jallodga bir necha tanga berib, jangda o'lgan bir kishining kallasini olib keltiradilar. Ikkinchi asir esa saroydan yetib kelgan tovachi – xabarchi bir asirning boshi yetarli ekan, deb qatlni to'xtatadi. Yana ikki navqiron inson boshi saqlanib qoladi¹⁵.

Navoiy Boyqaro bilan u taxtga o'tirgunga qadar mahfiy yozishma olib borgan. Uni g'alabaga ruhlantirib, qimmatli maslahatlar berib turgan, unga yupanch bo'lib, umidvorlik baxsh etib turgan.

Bu ruhiy madad Boyqaroning taxtni egallashida o'z rolini o'ynagan. Shoirning Samarqanddan sulton Boyqaro saroyiga xizmatga kelishini navoiyshunoslar turlicha talqin qilganlar. Ba'zilar hatto Navoiyning o'zi sulton huzuriga kelganiga ishora qilgan. Ammo bu haqiqatdan uzoqdir.

Olim S.Mutallibov ta'biricha, o'sha davrga kelib Navoiy xalq orasida mashhur shaxs bo'lgan, Husayn saroyda davlat arbobi rovida unga o'xshagan ziyoli shaxsning bo'lishiga zarurat his qilgan¹⁶. Albatta, bu fikr asossiz emas edi.

Bu masala atrofidagi eng ishonarlisi va barcha bahs-munozaralarga chek qo'yuvchi ma'lumot

¹⁵ O'sha asar

¹⁶ Mutallibov S. Vaqfiya haqida// Izv. AN UzSSR. - Tashkent, 1943, - № 5.- s. 100, 107.

Xondamirning soʻzlari boʻlib, unga koʻra, sulton taklifiga nisbatan Navoiy tinchlik va “uzlat”-yolgʻizlikni afzal koʻrib, unga koʻnmaydi, ammo hukmdorning qistovidan keyin, poytaxtga koʻchishga majbur boʻladi¹⁷.

Navoiyning oʻzi haqida maʼlumot beruvchi eng muhim asarlaridan biri “Vaqfiya” boʻlib, unda Boyqaro davri davlat tizimi, Navoiyning bu davlatni boshqarishdagi oʻrni, uning tarjimai holi, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlari keng yoritib berilgan. Shuning uchun ham navoiyshunoslikda bu asarga Navoiy nasrining ajoyib namunasi, avtobiografik asar sifatida qaraladi.

Saroyga borish masalasiga “Vaqfiya”dagi masnaviy ham oydinlik kiritadi. Unga koʻra, Boyqaroning donishmand maslahatchi Navoiyga koʻp jihatdan ehtiyoji bor edi va u shoirni Hirotga maxsus maktub-yorliq bilan chaqirgan.

Xulosa qilib aytganda Navoiydek maftunkor sheʼrlar ijodkori, ezgu soʻz va nasihatlariga boy shoir, ziyoli, diplomat va donishmand shaxs – xalqqa ham, Boyqaroga ham kerak edi. Biroq, shak-shubhasiz, hukmdor ehtiyoji ortida avval siyosat, keyin esa doʻstlik yotgan. Uzlatga chekinish, ijod bilan shugʻullanish rejasi barbod boʻlgan Navoiy esa taqdirga tan berib:

“Sen jon varagʻida boʻyla aylab tahrir, Ul safhada bu naqshni aylab tasvir,

Tagʻyir etar ermish oni kilki taqdir, Taqdir ishiga, rafiqlar, ne tadbir”¹⁸ degan oʻgitga quloq solib, taklifni qabul qilishga majbur boʻladi.

¹⁷ Xondamir. Makorimul-axloq. - Toshkent. 1967. - 62 - 63-betlar.

¹⁸ Navoiy Alisher, Vaqfiya. Asarlar. - 13 tom. - 173-bet.

Ushbu asarda Navoiy o'z ota-bobolarining saltanatga beqiyos xizmatlari singganini ko'rsatib, ulardan farqli o'laroq, o'zini bu ishlarga noloyiq kishi deb hisoblaganini gapiradi, ya'ni: "Ammo bu haqir hech nav' xizmatqa o'z qobiliyatimni chyenamagan jihatdin va hech turluk mashaqqatqa o'z quvvatimni anglamag'on sababdin..."¹⁹ Bu ham uning kamtar, mansabga intilmagan va oqil inson bo'lganini ko'rsatuvchi fakt. Bu fazilatlar, tabiiy, diplomatlarga xosdir.

Quyida bu buyuk davlat arbobining o'z lavozimi va berilgan vakolatlari asosida mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida o'ynagan rolini, diplomatik mahoratini yoritib berishga harakat qilamiz.

Poytaxtga kelib, katta lavozimga tayinlangan Navoiy butun vujudi bilan o'z xizmat burchini bajarishga kirishadi, astoydil mehnat qiladi. Bu sa'y-harakatlar esa tez orada o'z samarasini beradi. Buni o'zi quyidagicha ta'riflagan: "ul qadar hizmatdakim, bu hastaga quvvat erdi va ul miqdor mulozamatdakim, bu shikastaga tengri toqat berdi, jonsiporliq rasmin unutmadi..."²⁰ Boyqaro Navoiyga o'z saroyidan g'oyatda mas'uliyatli mansabni topshirar ekan, davlat ishlarida, hokimiyatni mustahkamlab olishda, umuman, mamlakat va xalq osoyishtaligini o'rnatishda Navoiy eng ishonchli kishi bo'lishini, o'z maslahatlari bilan katta yordam berishini yaxshi bilar edi.

1470-yilda sulton Boyqaroning eng xavfli siyosiy raqibi — Abu Saidning o'g'li Yodgor Mirzo temuriylarning dushmani bo'lgan Hasanbegi

¹⁹ O'sha yerda

²⁰ O'sha yerda

turkman bilan til biriktirib, Astrobodda sultonga qarshi qo'zg'alon ko'taradi va uning Hirotda yo'qligidan foydalanib, shaharni egallab oladi. Navoiy bundan qattiq iztirob chekayotgan Boyqaroga tezlik bilan saroyga tunda hujum qilish kerakligini uqtiradi. Navoiy Yodgor Muhammad Mirzoni o'z rejasi va qat'iyligi bilan tunda qo'lga olishda shaxsiy jasorat ko'rsatadi. Ya'ni qilich bilan mast-alast qo'zg'alonchilar ustiga bostirib kiradi. Bu misolda ham Navoiyning qat'iyligi, jasurligi, vaziyatni tez va to'g'ri tahlil qila olishi, xullas, diplomatlik talanti deb qabul qilish mumkin. Yodgor qatl ettirilib, saltanat tinchiydi. Bu voqeada, ko'rinib turibdiki, uning o'tkir diplomatligi ish beradi. Dushman kutmaganda, qo'qqisidan hujum qilib, ortiqcha qonsiz uni taslim qilish. Bu usul haqida yuqorida Temur diplomatiyasida gap borgan edi. Boyqaro 1472-yilning fevral oyida uni o'z saroyining bosh vaziri qilib tayinlaydi va unga "Amiri kabir" unvonini beradi. Navoiy yangi lavozimda avvalo butun kuchini mamlakatda tinchlik va osoyishtalik o'rnatishga qaratadi.

Boyqaro turli muammolarni osonlikcha bartaraf etar va bunda unga doim Navoiy yordam berib kelar edi. Dastlabki hukmronlik yillarida Sulton hokimiyatni mustahkamlash, mamlakatni obod qilish, Hirotni madaniy markazga aylantirish uchun bor imkoniyatlarini ishga soladi. Bu sohada ham shoh Navoiyga tayanar va har qanday murakkab masalalarda unga murojaat qilar edi. Navoiy el-yurt tinchligi, mamlakat osoyishtaligi uchun kurashishni o'zining asosiy burchi deb biladi.

Bir misol: hukumatning ortiqcha soliqlaridan norozi bo'lib, qo'zg'alon ko'targan xalq ommasini

tinchitishda o'zi tashabbus va jonbozlik bilan diplomatik yo'l tutib, adolat va mardlik ko'rsatadi. Ya'ni, Hirotga xalq norozilik bilan isyon ko'taradi. Bu ahvoldan xabar topgan shoh qo'zg'alonni bartaraf qilishdek mas'uliyatli ishni Navoiyga topshiradi. U xalq talablari nazarga olinishini, zolimlarning esa jazolanishini, mamlakatda adolat o'rnatilishi lozimligi to'g'risida shohning rasmiy farmoyish berishini so'raydi va farmonni olib, Hirotga jo'nab ketadi. Navoiy xalq qo'zg'algan yerga yetib kelib, uni tinchlantiradi va shoh farmonini Masjidi jome' minbaridan o'qishni buyuradi.

Buyuk shaxs - Navoiy o'rta asrdagi ulug' zotlar singari butun hayoti bilan oliyjanob inson, haqiqiy diplomat ekanini ko'rsatdi. U o'z davridagi nohaqlikka, adolatsizlikka qarshi kurashdi, amaldorlarning o'z vazifalarini suiiste'mol qilishlarini va ta'magirliklarini fosh etdi, ojiz, muhtoj kishilarni o'z himoyasiga oldi.

Sulton Husayn podshohlik qilgan, Navoiy hukumatda bosh vazir vazifasini egallagan yillarda hech bir mamlakatga qarshi bosqinchilik urushi olib borilmadi. Uning faoliyatida ijtimoiy-siyosiy masalalarni to'g'ri hal etishga intilish, jamiyatlardagi barcha ijtimoiy qatlamlarga, barcha qavmlarga bir xil munosabatda bo'lish, hech kimni kamsitmaslik, jamoat binolarini qurishga alohida e'tibor qaratildi.

Navoiyning insonparvarlik faoliyati, ilg'or qarashlari va obro'-e'tiborining xalq orasida tobora ortib borishi, tabiiyki, saroy ayonlariga yoqmagan. Ular shoir bilan podshoh orasini buzishga harakat qilganlar. Binobarin, 1487-yilda Navoiy Astrobodga hokim qilib tayinlanadi. Ba'zi navoiyshunoslar fikriga ko'ra, Boyqaroning bu

amri ba'zi adabiyotlarda "surgun" deb baholanadi. Boshqa olimlarning, jumladan, A.Qayumovning, fikriga ko'ra, Navoiy hayotining bu davriga, shohning qaroriga quyidagicha baho berilgan: *"Bizningcha ham, Navoiyning "surgun"ligidan ko'ra sultonga mamlakatining strategik ahamiyatga ega bu shahrini kuchaytirish orqali tinchlikni saqlash zarurati muhimroq bo'lgan."*²¹

Boyqaro bir tomondan Navoiyni mamlakatning g'arbiy chegarasida osoyishtalik o'rnatishiga umid bog'lasa, yana bir jihatdan saroydagi tarafkashlikka barham bermoqchi bo'ladi. Ayni vaqtda, shoh uni Astrobodga hokim qilib yuborish bilan uning izzat-hurmatini ham saqlashga harakat qilgan edi. Chunki mamlakatning asosiy tayanch shaharlaridan bo'lgan Astrobod faqat taxt vorisi yoki shohning eng ishonchli kishisigagina topshirilar edi²².

Astrobod xalqi, uning madaniy qatlami Navoiyni tantana bilan kutib oladilar. Navoiydek xalqparvar, ziyoli, odil hokimning Astrobodga kelishini eshitib, Sulton Husaynga ko'pincha havf turdirib turadigan Mozandaron va Jurjon viloyatlarining hokimlari o'z ixtiyorlari bilan tobe bo'lganlarini bildiradilar. Turkman sultoni Yaqubbek qimmatbaho sovg'alar bilan shoirni tabriklaydi, Ozarbayjon va Iroq hukumat boshliqlari ham Navoiy tufayli do'stona munosabat tiklaydilar. Navoiy Astrobodda ham o'z badiiy asarlarida tasvir etgan va barcha hukmronlarga o'rnak bo'la oladigan hokim sifatida ish ko'radi. Navoiyning sa'y-harakatlari

²¹ A.Qayumov. A. Navoiy, "Yosh gvardiya", 1976-y.

²² Bobur. Boburnoma. –T.: Yulduzcha, 1990, 147 b.

tufayli Astrobod qisqa fursatda obod va ma'mur shaharlardan biriga aylanadi, qo'shni davlatlar bilan yaxshi munosabatlar o'rnatiladi, savdo ishlari yo'lga qo'yiladi. Navoiy dushmanlari u Astrobodda yurganida ham tinchishmay, shoirni zaharlab o'ldirishga harakat qilishadi. Ammo fitna oshkor bo'lgach, shoh shoirni Hirotga chaqirtirib oladi.

Shoir Astrobodda ham ko'p ijod qilgan, Hirotidagi yor-do'stlariga maktublar yo'llab turgan. Uning Astroboddan Husayn Boyqaroning katta o'g'li Badiuzzamonga yozgan maktubini davlatni boshqarish haqidagi risola, deyish mumkin.

Navoiy doim Boyqaroni adolatli va ma'rifatli hukmdor qiyofasida ko'rish orzusi bilan yashadi. Astroboddan Boyqaroga va boshqa amaldorlarga yozgan maktublarida²³ ularni insof va adolatga chaqirar, davlat idora usulida mustahkam tartib o'rnatish va ayrim islohotlar o'tkazishga undar edi. Shuningdek sultonni yuz berishi muqarrar bo'lib qolgan halokatning oldini olishga chaqiradi, davlat ishlarini tartibga solish, xalq hamda mamlakat hayotini yaxshilash uchun zarur choralar ko'rishi lozimligini uqtiradi²⁴. Mana shular Navoiyning siyosatchi, *mohir diplomat* bo'lganining yana bir isboti.

Xalq sulton farmonidan norozi bo'lib isyon ko'targanda uni kuch bilan bostirmoqchi bo'ladilar. Navoiy shohga bunday qilingan taqdirda, xalqning noroziligi yanada oshib, chetda qulay payt poylab yurgan dushmanlarga taxt tomon yo'l ochib berilishini tushuntiradi... Navoiy

²³ Alisher Navoiy. Asarlar to'plami. 15 tomlik, 13 tom, 87-155-betlar

²⁴ G'aniyeva S. Alisher Navoiy: hayoti va ijodi, 18-bet

Hirotda kelib, holatni sinchiklab tekshiradi, sulton Husaynning joriy qilingan soliqlarni bekor etishi haqida farmon chiqarishiga muvaffaq bo'ladi va qo'zg'alon sababchilarining ayovsiz jazolanishiga erishadi. Natijada xalq boshiga tushgan katta mushkul ahvolning oldini olishdek og'ir vazifa Navoiyning aql va adolati, *diplomatik mahorati* tufayli tez va ko'ngildagidek hal qilinadi.

Husayn Boyqaro Navoiyga bir nechta yuksak lavozimlarni taklif qiladi. U rozi bo'lmagach, unga "Muqarrabi hazrati sultoni" ("Sulton hazratlarining eng yaqin kishisi") degan rasmiy unvon beriladi. Bu bilan u davlatning hamma ishlariga aralasha olar va podshoh bilan ko'rishish imkoniga ham ega bo'lar edi. Bu faktga e'tibor qaratilsa, saroy amaldorlari, shu jumladan, o'rtalarida nodo'stona munosabat bo'lgan Muhammad Majdiddin ham har bir muhim masalani doim Navoiy bilan kelishishga majbur edi. Bizga shoirning Balxda hokim bo'lib turgan ukasi Darveshali Majdiddindan ranjib, bosh hukumatga qarshi isyon ko'targani ma'lum. Bu isyon ham Navoiyning aralashuvi bilan tinchitilgan. Aynan shu voqea 1490-yilda Majdiddinning siyosat maydonidan ketishiga asosiy sabab bo'lgan. Demak, Navoiy yana bir yomon voqeaning oldini olgan. Haqiqatdan ham u behuda qon to'qishga, kishilarni behuda azoblashga qarshi qattiq kurashgan kishi bo'lib, uning katta gumanistligini ko'rsatadi.

1490-yillarning o'rtalariga kelib mamlakatda ijtimoiy-siyosiy tanglik kuchaya boshlaydi. Temuriylar xonadonida hukmdor o'g'illari o'rtasida yuzaga kelgan ziddiyatlar esa bu tanglikni yanada kuchaytiradi. Har bir shahzodaning o'z tarafdorlari bo'lib, ularni

murosaga keltirish ko'p vaqt Navoiy zimmasiga tushar edi. Bosh vazir Nizomul-mulk esa 1496—97 yillarda bu oilaviy mojarolarda bir tomonlama harakat qilib, Muzaffar Mirzoning onasi — Xadicha begimga yon bosadi. Shu asosda Husayn Boyqaro bilan Astrobodda hokimlik qilayotgan Badiuzzamon o'rtasida harbiy to'qnashuv yuz berdi. Saroydagi fitna, jumladan, Nizomulmulkning qabihligi natijasida Badiuzzamonning o'g'li, Husayn Boyqaroning eng sevimli nabirasi, Navoiyning esa ixlos qo'ygan shogirdi Mo'min Mirzo fojiali o'ldiriladi. Bular hammasi Navoiy hayoti va kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. U iste'foga ketishga ahd qiladi.

Bu haqda Boburning xabar berishicha, Boyqaro "avval taxt olgan mahalda olti-yetti yil toyib (o'zini tiyar – I.Sh.) edi. Andin so'ngra ichkuga tushdi, qirq yilg'a yovuqkim Xurosonda podshoh edi, kun yo'q edikim, namozi peshindin so'ng ichmagay, vale hargiz sabuhiy qilmas edi, o'g'lonlari va jami' sipohiga va shahriga bu hol edi. Ifrot bila aysh va fisq qilurlar edi."²⁵

Navoiy 1476-yilda vazirlikdan iste'fo beradi. Biroq Navoiy vazirlik lavozimidan ketgandan so'ng ham sulton saroyidagi eng nufuzli siyosiy arbob bo'lib qolaverdi. Hirot adabiy muhitida Jomiy juda katta obro'ga ega bo'lib, Navoiy nafaqat badiiy ijod, balki ko'pgina siyosiy masalalarda o'z ustozidan maslahatlar olib turgan. Aynan Jomiy unga saroydan uzoqlashmay, mamlakatda odil siyosat olib borilishi uchun harakat qilish, xalq g'amini yeyish va shohni odillikka yo'naltirishga maslahat berib turgan. Taraqiyparvar kishilar Navoiyning saroy

²⁵ "Bobirnoma", O'zFA nashri, T., 1960, 224-b.

xizmatida bo'lishi davlat va xalq uchun katta ahamiyatga ega bo'lgani sababli Navoiyning o'z vazifasidan iste'fo berishini xohlamas edilar. Navoiy ham shoirlikni, ham davlat arbobi vazifasini maromiga yetkazgan ajoyib inson, tengi yo'q diplomat bo'lgan. Uni eng qiynagan masala - ijodga vaqti yetishmagani. Kunduzi o'z vazifalarini sidqi-dildan bajargan shoirida faqatgina tunlari ijod qilishdan boshqa imkoni yo'q edi. Bu haqda "Vaqfiyya"da tarixiy xarakterga ega bo'lgan ma'lumotlar bor bo'lib, bu ham bo'lsa, muallifni o'rab turgan muhit, turli, asosan salbiy xislat va xarakterli kishilarning haqqoniy qiyofalarini, butun boshli galereyasi yaratilgan. Bunda Navoiy o'z burchi yuzasidan har kuni kimlar bilan uchrashib, muomalada bo'lishi, ularning arz va iltimoslarini tinglashi, shuning uchun ham erta tongdan kechgacha mashg'ul bo'lganini yozgan. Eng muhimi, bu asar shoirning eng oddiy, kundalik kunlaridan biriga nazar tashlash imkonini beradi.

Bundan chiqdi, shunday boodob, o'ta insonparvar, haqiqiy diplomat inson hech qachon hech kimga rad javobi bermagan, ko'pchilik bundan o'z g'arazli maqsadlarida foydalangan, degan xulosa qilish mumkin. "Vaqfiya" kitobxonni Navoiy atrofida yashovchi turli qatlam vakillarining butun bir galereyasi bilan tanishtiradi, ular xizmatda va uyda muttasil turli masala va arzimas yumushlar bilan unga murojaat qilib, qimmatli vaqtini olardi. Ular bilan tanishgan o'quvchida beixtiyor istehzo va achinish, g'azab va hayrat tuyg'ulari uyg'onadi, shoirning ruhiy-psixologik holati yaqqol ko'zga tashlanadi. Boshida nosog'lom fikrlari bor xudbin, ochko'z, razil kishilarning har xil tashriflaridan,

ularga yordam berishdan charchagan shoirning ahvolning yaxshi tomonga o'zgarishiga ishonchi yo'qligidan hafsalasi pir bo'ladi.

Shuning uchun ham unda kuchli istak, to'g'rirog'i, tanlov yuzaga keladi, ya'ni davlat faoliyatini ijod bilan almashtirish, zero bu sohada u o'zini ko'proq kuchli deb hisoblaydi va bundan ko'proq foyda keltirishini biladi.

Bularning barchasi bizning qahramonimizning xarakterini ifodalab beradi. Biz uni prinsipial, jamiyat va inson manfaatlarini shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'yadigan, davlat va xalq farovonligi haqida qayg'uruvchi shaxs sifatida ko'ramiz.

Ko'rib turganimizdek, Navoiy odamlar uchun, jamiyat ravnaqi uchun barcha imkoniyatlarni ishga solgan. Unda har qanday feodalga, badavlat amaldorga xos bo'lgan - kam ta'minlanganlar hisobidan foyda olish istagi yo'q edi. Aksincha, hayolidagidek adolatli davlat yaratishni orzu qilib yashadi, xayriya, savob ishlarini amalga oshirdi²⁶.

Navoiy faoliyatidagi saltanat iqtisodiy-siyosiy hayotiga katta ta'sir ko'rsatgan harakat, bu Navoiyning o'zi ta'kidlaganidek, Hirot va uning atrofida katta bug'doyzorlar, bog'lar, sug'orish tizimlari va binolar bo'lib, ulardan katta daromad olgan. Uning bu vaqf qilingan mol-mulkalaridan tushgan boyliklari quyidagi ishlarga sarflangan: daromadning bir qismini "Hazratning (sultonning-I.Sh.) kerakli va yaxshi ishlariga, bordi-keldilari, qo'shin yarog'iga va atrofida yaqinlari sarflariga" ishlatgan. Boshqa bir qismini "yaxshilik binolari (madrassa, masjid, shifoxona,

²⁶ O'zbek ensiklopediyasi, 1 tom, 1971-yil, 260 b

rabot, xonaqoh) qurishga" bergan."²⁷

Bu sanab o'tilgan ishlar, sarf-xarajatlar juda katta mablag' talab qilardi. Bu yerda Navoiyning buyuk siyosat arbobi, hukmdorning maslahatchisi va yaqin do'sti sifatidagi xizmati shundaki, u saroyning moliyaviy ishlarini bir maromda ushlab turishga harakat qilgan. Demak, Navoiyning davlat miqyosidagi o'rni beqiyos edi. Mutafakkirning yuqorida tilga olingan avtobiografik asari – "Vaqfiya"da shoh, ya'ni davlat xizmatiga kirishgan odam uchun o'zi amal qilgan yetti qoida, prinsipni sanab o'tgan. Bular ko'proq boshqalarga tavsiya, maslahat, yo'l-yo'riq xarakteriga ega. Bu tamoyillarni bemalol diplomatlar uchun yo'l-yo'riq, tavsiyalar, deb qabul qilish mumkin, deb hisoblaymiz.

S.G'aniyeva yozadi: "Navoiy portretiga yana bir chizgi shuki, uning davlatga xizmat qanday bo'lishi kerakligi va "faoliyat qirralari"²⁸, ya'ni mas'uliyat, xizmat qoidalari masalasi bo'lib, ularni nasihat, mansabdor shaxslarga va boshqa kishilarga da'vat deb hisoblash mumkin.

Olima tadqiqotchilardan birinchi bo'lib shohga xizmat qilishning bu qoida – burchlarni (tamoyillarini) sanab o'tgan.²⁹ Biz bu qoidalarni bemalol Navoiyning diplomatik prinsiplari deb atashimiz mumkin.

Bular ustida kengroq to'xtab o'tsak.

Birinchi tamoyilga ko'ra, o'zga hukmdor to'g'risidagi fikrni "qalb mamlakati"dan, ya'ni yurakdan, xayoldan chiqarib yuborish kerak. Shu o'rinda bir fikrni aytish kerakki, Navoiy o'z xizmat

²⁷ Navoiy Alisher, Vaqfiyya, "Fan" nashriyoti, Toshkent, 1991-y., 25-26 b.

²⁸ G'aniyeva S. Vaqfiya haqida. O'zbek adabiyoti tarixi. – II-tom, - Toshkent, 1977. - 399-bet.

²⁹ O'sha asar.

tamoyillarini sulton xizmatidagi boshqa kishilarga tushuntirar ekan, o'zini o'rnak qilib ko'rsatgan va boshqalarning ham bu talablarga amal qilishini chin dildan xohlagan. Demak, bular nasihat qabilida bo'lib, tarbiyaviy xususiyatga ega.

Ikkinchi qoida-prinsipga ko'ra, quyidagilarga rioya qilish kerak bo'lgan: umuman, ayniqsa, so'ramasa, shohning ishlariga aralashmaslik, taqiqlangan narsalarga ko'zlarni "nargis ko'zlari" kabi "ko'r" qilib, ko'rmaslik; eshitish mumkin bo'lmagan suhbatlardan quloqlarni "binafsha quloqlari" kabi kar qilish; man' qilingan narsalarga "chinorning falaj qo'llari" singari tegmaslik; yurish mumkin bo'lmagan joylarda oyoqlarni "sarv kabi oqsoq" qilib, qadam qo'ymaslik; (hukmdorning) sirlarini oshkor qilmaslik uchun tilni "savsandek soqov" tutish.

Xizmatning uchinchi prinsipga ko'ra, saroy lavozimiga loyiq ko'rilgan shaxs quyidagilarga amal qilishi kerak edi: shohga xizmatda hech qanday ta'magirlik qilmaslik, ochko'zlik, yomon niyatlar bo'lmasligi, aksincha, hukmdor va xalqi uchun sodiq va halol xizmatchi bo'lish.

To'rtinchi prinsipiga ko'ra, "G'azab bulutlari adolat yuzini qoplaganida", garchi Navoiyga shohni xabardor qilish zarurligi buyurilgan bo'lsa ham, uni bezovta qilmay masalani o'zi hal qilishga harakat qilgani. Ammo shohni xabardor qilish va "muammoni"ni aytib berish zarur bo'lganda, u boshqa aralashmaslikka harakat qilgani va uni hukmdorning ixtiyoriga qoldirgani.

Shoirning davlat arbobi sifatidagi beshinchi qoidasi to'rtinchisiga o'xshash va deyarli farq qilmaydi, chunki unga ko'ra, Navoiy "imkoniyati boricha" "zulm chegarasini" sindirib, "mazlumlarni yarasiga qasos malhamini" qo'yishi kerak edi. Qo'ldan kelmaganni esa shohga bayon qilishi kerak

bo'lgan. Bunda Navoiyning zulm, qonunbuzarlik va zo'ravonlikka qarshi kurashi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Oltinchi tamoyilga ko'ra, Navoiy boshqa amaldorlardan farqli o'laroq, hammaga - har qanday iltimos, maslahat bilan kelgan eng olijanob zodagonlardan tortib, kambag'al, oddiy odamlargacha yordam berishga intilgan, lekin yordami va xizmati uchun hech qachon mukofot, naf kutmagan va taklif qilganlarni rad etib, buni ijtimoiy illat, deb bilgan. Qolaversa, Navoiyning o'zi aytganidek hamda yuqorida ta'kidlaganimizdek, bu kabi "xayr-ehsonlarga" ehtiyoji yo'q edi.

Va nihoyat, Navoiyning so'nggi - boshqalaridan ko'ra muhimroq bo'lgan yettinchi xizmat prinsipi quyidagilarni o'z ichiga olgan edi: u "turar joy ekinsiz va bo'sh qolmasligi" uchun dehqonchilik bilan shug'ullanishni zarur, deb hisoblagan, ya'ni "birovning qo'liga qaramay", bir kishining yashashi uchun yetarli bo'lgan oziq-ovqat va issiq va sovuqdan himoya qilish uchun bir juft kiyim-kechakni qoldirib, qolgan hamma narsani davlat ehtiyojlari uchun sarflab, odamlarga yaxshilik qilib, undan qolgan mablag'ga jamoat binolari qurish u uchun muhim edi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida sanab o'tganimiz Navoiyning "Xizmat qoidalari" bo'lib, ular shoirning o'zi ta'kidlaganidek, o'zi rioya qilgan va hurmat bilan yondoshgan "yozilmagan qonun"lari bo'lgan. Bularning barchasi Navoiyning shaxsiy fazilatlarini yorqin ko'rsatib beradi. Biz uni prinsipial, jamiyat va inson manfaatlarini shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'ygan, davlat va xalq farovonligi haqida qayg'urgan shaxs sifatida ko'ramiz.

Navoiyning deyarli barcha asarlarida axloqiy

qadriyatlar u yoki bu darajada tarannum etiladi. Mutafakkirning butun ijodidan o‘rin olgan pand-nasihatlar, ahloq-odobga oid mulohazalari diplomatik etiket asoslari bo‘lib xizmat qila oladi. Mana bir misol: Navoiy hayotining oxirlarida “Mahbub ul-qulub” nasriy asarini yozdi³⁰. Unda muallif o‘zi yashagan davrdagi turli tabaqalar hayoti, axloqi va vazifalari haqida suhbat yuritadi. U ushbu tabaqa vakillarining yaxshi ishlari haqida ham, ayb va nuqsonlari haqida mulohaza yuritib, ularni tarbiyaga chaqiradi, nasihat beradi. Asarda allomaning inson axloqiga va tarbiyasiga oid ajoyib pand-nasihatlar xalq maqollari va hikmatli so‘zlar ko‘rinishida bayon qilingan. Olimlar ta’kidlashicha, adibning “Tarixi muluki Ajam” va “Tarixi anbiyo va hukamo” asarlari o‘z davri ijtimoiy-siyosiy tarixiga bag‘ishlab yozmoqchi bo‘lgan asarining boshlang‘ich bo‘laklaridir.

Asarning ba’zi qismlaridan misol: “...amir ekanimda xalqning dodiga yetdim va mendan umidvorlarga muruvvat ko‘rgizdim. Goho ulug‘ kishilarni, amaldorlarni ta’zim yuzasidan mehmon qildim. Ba’zan sultonlar muxolifat qilganda, o‘rtalariga tushib, ularni kelishtirdim. Goho urush maydoniga tushib, johil va nodonlarga duch keldim. Va gohi jamoat uchun binolar qurdim...”

Ushbu asarida u odamlarni boshidan o‘tgan va bilgan holatlar, yaxshi-yomon narsalardan xabardor qilmoqlikni zarur deb hisoblashini yozgan: toki ular ham har xil toifa xislatidan va har tabaqaning ahvolidan xabardor bo‘lsinlar. Toki munosib odamlar xizmatida bo‘lgaylar va nomunosib kishilar suhbatidan o‘zlarini

³⁰ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 14-jild: Mahbub ul-qulub. Munshaot. Vaqfiya. T.: “Fan”, 1998.

tortgaylar. Va maxfiy sirlarni har kimga aytmagaylar va shaytonsifat kishilarning makriga aldanmagaylar. Kimki sinalmagan odam bilan suhbatlashish va do'stlashmoqni havas qilsa, unga men faqirning tajribasi yetarlidir. "Mahbub ul-qulub"ning "Yaxshi fe'llar va yomon xislatlar to'g'risida" nomli 2- qismida kishilik jamiyati yaxshi bo'lishi uchun jamiyat a'zolari qanday *xulqqa* ega bo'lmoqlari, qanday tamoyillarga asoslanishi lozimligini ochib beradi. Bular orasida bizning mavzuga yaqini sabr-qanoat, tavoze va adabni eslab o'tish kifoya. Bular aynan *diplomatik etiket elementlari* hisoblanadi.

O'z xalqi, millati taqdiriga befarq bo'lmagan buyuk murabbiy sifatida umri intihosida ham millat va xalq dardi bilan yashadi. "Mahbub ul-qulub" asarida jamiyat bilan bog'liq orzu-umidlarini ifodaladi. Unda jamiyat hayotini yuksaltirish, uni to'g'ri yo'lga solish va shaxs ma'naviyatini tarbiyalash kabi o'zining so'nggi armonlarini vasiyat qilib qoldirdi.

Yana bir muhim faktga murojaat qilsak, bu - Navoiy Makkaga haj qilish uchun ruxsat so'rab Boyqaroga tez-tez murojaat qilgani. Biroq, Xondamir ta'kidlaganidek, hukmdor har gal turli sabablarga ko'ra amirdan safarni kechiktirishni so'ragan ³¹. Ammo, oxir-oqibat, shoh o'z tayanchi - Navoiyning qistovlariga qarshi tura olmaydi. U hajga ruxsat berish belgisi sifatida maxsus farmon chiqaradi - bu farmonda shoir Bayqaroning eng yaqin kishisi sifatida tilga olinadi. Ko'rinib turibdiki, sulton o'zining eng yaqin kishisi, maslahatgo'yi va davlat ustunlaridan biri Navoiyga juda bog'lanib qolgan bo'lgan.

³¹ G'iyosiddin Xondamir, Makorim ul-axloq, T., G'.G'ulom nashriyoti, 1967, 14-b.

Xulosa qilib aytganda, Amir Alisher Navoiy avvalo shoirtabiat, nozikta'b bo'lgani sababli buyruqvozlik va mansabparastlikdan uzoq edi. Mansab-lavozimlarga umuman qiziqmagan bu insonni faqat Boyqaroga bo'lgan ixlos va muhabbati, o'zi orzu qilgan adolatli jamiyat qurish g'oyasigina iste'fo berishdan saqlab turar edi. U *mohir diplomatligi*, aqlu farosati bilan ko'plab g'alayonu qon to'kishlarning oldini oldi, urushlarni to'xtatdi. Uning bu fazilati, ayniqsa, vazirlik faoliyatida yaqqol namoyon bo'ldi. Boyqaro hokimyat ishlarida doim Navoiyning qimmatli maslahatlariga tayanib ish ko'rdi.

Bibliography

1. Navoiy, A. (1959). *Xazoyin ul-maoniy*. I tom. Toshkent.
2. Navoiy, A. (1966). *Asarlar* (15 tomlik), 13-t. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti.
3. Abdullayev, V. A. (1963). *Navoiy Samarqandda*. Toshkent: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va sanat nashriyoti.
4. Abdug'afurov, A. (1973). Navoiyga Husayn Boyqaroning maktub-yorlig'i. *Sharq Yulduzi*, (1).
5. Abdug'afurov, A. (1979). *Erk va ezgulik kuychisi: Ilmiy-tanqidiy maqolalar*. Toshkent.
6. Avtorlar kollektivi. (1973). *Adabiyot nazariyasi* (II tomlik). Toshkent: Fan.
7. Axmedov, B. (1986). *Navoiy zamondoshlari xotirasida*. Toshkent.
8. Bartold, V. V. (1964). Mir-Ali-Shir i politicheskaya jizn. *Soch.* t. II, ch. 2. Moskva.
9. Bertels, E. E. (1948). *Navoi*. Moskva-Leningrad.
10. Zohidov, V. (1961). *O'zbek adabiyoti tarixidan*. Toshkent.
11. Is'hoqov, Yo. (1983). *Navoiy etikasi*. Toshkent: Fan.
12. Mallayev, N. (1963). *Гениальный поэт и мыслитель*. Toshkent.
13. Mir-Ali-Ship: Sb. st. (1929). Leningrad: Izd. AN SSSR.
14. Mutallibov, S. (1948). Vaqfiya haqida. *Izv. AN UzSSR*, (5).
15. Sultonov, I. (1969). *Navoiyning qalb daftari*. Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot.
16. Semenov, A. A. (1950). *Portret epoxi Navoi*. Toshkent.
17. Sharafuddinov, A. (1948). *Alishyer Navoi (biograf. ocherk)*. Tashkent: Gosizdat UzSSR.
18. Qayumov, A. (1976). *Alisher Navoiy*. AKH seriyasi. Toshkent: Yosh gvardiya.

19. G'aniyeva, S. (1962/1963). *Alisher Navoiy (hayoti va ijodi)*. Toshkent: O'zSSR Fan nashriyoti. To'ldirilgan 2-nashri.
20. Hayitmetov, A. (1959). *Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari*. Toshkent: O'zSSR FA nashriyoti.
21. Hayitmetov, A. (1970). *Navoiy dahosi*. Toshkent: G'. G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti.
22. Hayitmetov, A. (1972). Navoiy haqida yangi ma'lumotlar. *Sharq Yulduzi*, (9).
23. Navoiy, A. (1991). *Vaqfiya*. Toshkent: Fan.